



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING MEDIAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA KO'RSATKICHLARI

Muslimov Sherzod Narzulla o'g'li

TDPU "Muhandislik va komyuter grafikasi" kafedrasi dotsenti, PhD

Abdusalomova Xadicha G'ayratjon qizi

Nizomiy nomidagi TDPU "Muhandislik va dizayn nazariyasi"

mutaxassisligi 1-kurs magistanti

#### Annotatsiya:

Mazkur maqolada axborotlashgan jamiyatda media hamda u bilan ishslashda mediasavodxonlikning o'rni va ahamiyati haqida fikrlar tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada bo'lajak o'qituvchilarning mediasavodxonligi va mediata'lim masalalarining dolzarbliji, uning daraja va talablari, tashkil etuvchi komponentlari hamda mediasavodxonlikni oshirishning ahamiyati haqida fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** mediasavodxonlik, oliv ta'lim, yuksalish, mediata'lim, mediaparvez, raqamli avlod, Z avlod, mediajamiyat.

Ma'lumki, ta'lim jamiyat rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Qanday sohada bo'lmasin, yuqori bilimga ega mutaxassislar ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini bilan shug'ullanish, yangi mahsulot turlarini yaratish va texnologiyalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Jahondagi globallashuv jarayonlari va kompaniyalar o'rtasidagi mavjud chuqur raqobat muhiti mutaxassislarni ham favqulodda shunga tayyor bo'lishlarini talab etadi. Ular nafaqat o'z g'oyalarini rivojlantirish va yaratilgan nazariy modellarini amalda joriy etish uchun qulay sharoitlarni ta'minlaydilar, shu bilan birga, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi uchun ham muhim intellektual omil hisoblanadi. Hozirda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot talablariga mos holda kadrlarning axborot texnologiyalari borasidagi bilimlarini takomillashtirish orqali mediakompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash lozim.

Bugungi intellektual salohiyat uchinchi ming yillikning birinchi asrini "intellektual asr" deb atashni taqozo etayapti, chunki XXI asr jahonda fan-texnika rivoji misli ko'rilmagan darajada tezkor rivoj-lanish asri bo'lmoqda. Bunda ta'lim-tarbiya, fan,



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

san'at, adabiyot, sanoat, ishlab chiqarishni hamda ma'naviyatni ham axborotlashtirishsiz tasavvur etib bo'lmaydi, chunki axborotlashtirishni XX asrning so'nggi o'n yilligida butun kishilik jamiyati rivojlanish resursi deb tan olindi. Bunday fikrni bildirishga olimlarimiz tomonidan oldindan qilingan bashoratomuz fikrlar ham mavjud edi. Xususan, bu borada akademik V.M. Glushkov-ning quyidagi fikri ahamiyatlidir: "XXI asrda texnik rivojlangan davlatlarda axborotlarning asosiy qismi qog'ozsiz - EHM xotirasida saqlanadi. XXI asr boshlarida ushbu axborotlardan foydalana olmagan kishi XX asr boshidagi o'qishni bilmaydigan kishiga o'xshab qoladi".

Bugungi kundagi axborotlar almashinuvi kishilar turmush tarzining barcha sohalariga uzviy ta'sir ko'rsatadi. Kundan kunga o'sib va tezlashib borayotgan axborotlar oqimi kishidan nafaqat uni to'g'ri qabul qilish, balki uni fikrlab, tahlil qilib boshqalarga to'g'ri etkazish salohiyatini ham talab qiladi. Insonlarda ushbu salohiyatga aynan mediata'lismi rivojlantirish va uning asosida mediasavodxonlikni oshirish orqali erishish mumkin. Demak mediasavodxonlik bugungi globallashuv davrida shaxsning ma'naviy-ma'rifiy olami, tarbiyasi va madaniyati kabi rivojlantirish lozim bo'lgan muhim qirralaridan biri bo'lib ulgurdi. Tadqiqotchi V.Veber o'z tadqiqotlarida mediasavodxonlikning 4 asosiy talablarini keltirib o'tgan:

1. Media tomonidan taklif qilinayotgan axborotlarni saralash va ular bilan ishslash salohiyati;
2. O'zi mustaqil ravishda mediamahsulot yaratish salohiyati;
3. Turli axborotlarni to'g'ri tahlil qilish va ularga kreativ munosabat bildira olish salohiyati;
4. Axborotlarni topish va ular bilan effektiv ishslash salohiyati. Ammo shuni unutmaslik lozimki insonning mediasavodi eng avvalo uning tarbiyasi, ma'naviyati, psixologik holati va shu kabi jihatlar bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Bugun olimlar tomonidan bu sohada "raqamli savodxonlik" atamasining ham ko'p ishlatalishini uchratishimiz mumkin. Tadqiqotlarda raqamli savodxonlik – shaxsning komil sifatlari (bilim, aql, motivatsiya, mas'uliyatlilik, tarbiya)ga asoslangan holda axborot-kommunikatsion texnologiyalarni hayotning turli jabhalarida o'ziga ishonch bilan, tez va xavfsiz qo'llay olish ko'nikmasi sifatida qaraladi. Ya'ni, bu nafaqat axborot kommunikatsion texnologiyalar bilan ishlay olish darajasi balki axborotlarni to'g'ri tahlil etish, ularni ajratish, munosabat bildirish va boshqalarga to'g'ri etkaza olish ko'nikmasi hamdir", deb ta'riflanadi. Boshqacha qilib aytganda



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

raqamli savodxonlik – zamonaviy dunyoda hayot uchun, raqamli texnologiyalar va internet resurslaridan xavfsiz va samarali foydalanish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar to‘plamidir. Dinamik onlayn rejimlarni yaratish, saqlash, yirik va murakkab bo‘lgan onlayn ijtimoiy tarmoqlarni boshqarish qobiliyati hisoblanadi. Raqamli savodxonlik ma’lumotlarni mazmuni va ularning ta’sirini tushunish, ularni saralash, ularda keltirilgan hissiy va asoslangan axborotlarni ajrata olish, ma’lumotlar haqida tanqidiy mulohaza yuritish, jarayonlarni farqlash xususiyatlariga ega.

Mutaxassis Evgeniy Morozov o‘z tadqiqotlarida yozishicha, ijtimoiy tarmoqlar beg‘am va erinchoq odamlar avlodini tarbiyalamoqda. Soha mutaxassislari Dj.Pelfri va K.Gasserlarning ta’kidlashicha “Raqamlashtirish asri bolalari (raqamlashtirish aborigenlari) kundalik turmush tarzining asosiy vaqtini Internetda o’tkazadilar, shuningdek ular o‘zlarini nafaqat raqamli maydonda balki boshqa sohalarda ham ustun deb bilishadi” . “Raqamli” ya’ni “Z avlod” uchun virtual va real hayot o‘rtasida chegara mavjud emas – uyida o‘tirgan holda butun dunyo bilan aloqaga kirishadi. Virtual hayot – “mediajamiyat”da yashashi oqibatida real hayotdan chetlashadi, insonlar bilan aloqa qilishga qiynaladi, real ijtimoiy jamiyatda zerikadi, dunyoqarashi va fikrlash doirasini toraytiruvchi raqamlar va qisqa ma’lumotlarga o‘rganib qoladi. Bu esa “o‘sayotgan inson miyasiga to‘g‘ri taqsimlangan va tashkil etilgan media-parhez kerak”ligini ko‘rsatadi. Ya’ni yoshlarda mediaaxborotlarni to‘liq va to‘g‘ri tushunishlari uchun tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish zarur. Jamiyatning har bir a’zosi uchun o‘z o‘rnini mustahkam egallashda an’anaviy savodxonlik (o‘qish, yozish, hisoblash, sanash, jismoniy chiniqish) etarli bo‘lmaydi. Xulosa qilib aytganda, mediasavodxonlikni rivojlantirish hamda zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirish davr talabi bo‘lib qolmoqda. O‘sib shakllanib kelayotgan “Raqamli avlod”ning psixologik va sotsiologik nuqtai nazardan tadqiq etilishi bizga ularni katta hayotga tayyorlash va kelgusida ijtimoiylashuvida uchrashi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva Q.M. Maxsus fanlarni o‘qitishda bo‘lajak o‘qituv-chilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: Dis. ... ped. fan.nom. –T.: 2006. –182 b
2. Алексеев Н.А. Личностно-ориентированное обучение в школе. – Ростов н/Д: Феникс, 2006. – 332 с
3. Duray-Novakova K.M.. Talabalarni pedagogik faoliyatiga kasbiy tayyorgarligini shakllantirish.. – М.: 1983. -356 b.
4. Qo‘ysinov O.A., Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi. Monog. – T.: “Fan”, 2009. - 92 b.
5. Вербицкий, А.А. Компетентностный подход и теория контекстного обучения / А.А. Вербицкий. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 84 с.
6. Богоявленская, Д.Б. Интеллектуальная активность как проблема творчества / Д.Б. Богоявленская. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2003. – 375 с.